Bugungi kunda sun'iy intellektning ta'limdagi imkoniyatlari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, uning o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi va metakognitiv nazoratiga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik determinantlarini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonida o'quvchining mustaqil qaror qabul qilish, axborotni tanqidiy baholash, o'z fikrlash faoliyatini boshqarish va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi va metakognitiv nazoratining shakllanishiga ta'sir etuvchi pedagogik hamda psixologik determinantlarni ilmiy tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligini asoslash hamda ta'lim amaliyotida ushbu determinantlardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt asosidagi ta'lim texnologiyalarini pedagogik nuqtai nazardan takomillashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish va metakognitiv boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda sun'iy intellektning ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada ko'paydi. Dastlabki izlanishlarda sun'iy intellekt asosan avtomatlashtirilgan baholash, adaptiv ta'lim platformalari va individual o'quv yo'nalishlarini shakllantirish vositasi sifatida o'rganilgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda uning o'quvchilarning bilish faoliyati, tanqidiy fikrlashi, metakognitiv rivojlanishi va mustaqil ta'lim kompetensiyalariga ta'siri alohida ilmiy yo'nalishga aylandi ^[1].

Metakognitsiya nazariyasining shakllanishida J. Flavellning ilmiy qarashlari muhim o'rin egallaydi. U metakognitsiyani shaxsning o'z bilish jarayonlari haqidagi bilimlari hamda ushbu jarayonlarni rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyati sifatida izohlaydi ^[2]. Mazkur yondashuv zamonaviy sun'iy intellekt vositalari bilan



ishlash jarayonini tushuntirishda ham dolzarb hisoblanadi. Chunki foydalanuvchi sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan javobni qabul qilishdan oldin uning mazmunini tahlil qiladi, mavjud bilimlari bilan taqqoslaydi va zarurat tug'ilganda qo'shimcha izlanish olib boradi. Bu esa metakognitiv nazoratning amaliy namoyonidir.

A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida o'z-o'zini boshqarish, o'ziga bo'lgan ishonch va refleksiv nazorat ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy psixologik omillar sifatida ko'rsatiladi ^[3]. Tadqiqotchining fikricha, o'quvchi o'z imkoniyatlariga ishongan sari murakkab vazifalarni bajarishga intiladi va o'quv faoliyatini mustaqil tashkil etishga moyilligi ortadi. Sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida ham aynan o'z-o'zini boshqarish va refleksiv nazorat o'quvchining raqamli vositalardan oqilona foydalanishini ta'minlaydi.

B. Zimmerman tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini boshqaruvchi ta'lim modeli zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda ^[4]. Ushbu modelga ko'ra, samarali ta'lim uch bosqichni o'z ichiga oladi: faoliyatni rejalashtirish, bajarish jarayonini nazorat qilish va yakuniy natijalarni refleksiv baholash. Sun'iy intellekt asosidagi o'quv platformalaridan foydalanishda aynan ushbu bosqichlarning izchil amalga oshirilishi o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

L. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi konsepsiyasi ham sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi ^[5]. Agar ilgari murakkab vazifalarni bajarishda asosiy yordamchi o'qituvchi yoki tengdoshlar bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda sun'iy intellekt ayrim hollarda individual pedagogik ko'mak beruvchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq tadqiqotchilar sun'iy intellekt o'qituvchining o'rnini emas, balki uning faoliyatini to'ldiruvchi hamkor texnologiya sifatida qo'llanishi lozimligini ta'kidlaydilar.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda generativ sun'iy intellekt vositalari, jumladan, katta til modellari o'quvchilarning tanqidiy fikrlashiga ikki xil ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan ^[6]. Bir tomondan, ular murakkab axborotni qisqa vaqt ichida tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash va ijodiy g'oyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Ikkinchi tomondan esa, o'quvchi sun'iy intellekt javoblarini tekshirmasdan qabul qiladigan bo'lsa, mustaqil fikrlash faolligi pasayishi, kognitiv qaramlik kuchayishi va refleksiv nazorat sustlashishi mumkin.

Ta'lim psixologiyasi sohasidagi ilmiy ishlarda kognitiv mustaqillikning shakllanishi ichki motivatsiya, bilishga bo'lgan ehtiyoj, muammoli vaziyatlarning mavjudligi hamda refleksiv ta'lim muhiti bilan bevosita bog'liqligi qayd etiladi ^[7]. O'quvchilar faqat tayyor javoblarni emas, balki izlanish, tahlil, taqqoslash va dalillashni talab qiladigan topshiriqlarni bajarganlarida kognitiv mustaqillik barqaror rivojlanadi. Shu sababli sun'iy intellekt bilan ishlash metodikasi ham reproduktiv emas, balki produktiv va tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirilishi zarur.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham ta'limni raqamlashtirish, kompetensiyaviy yondashuv va mustaqil ta'limni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda ^[8]. O'zbekiston ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayonida o'quvchilarning axborot madaniyati, tanqidiy fikrlashi, raqamli savodxonligi va o'z-o'zini boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Biroq ushbu jarayonda pedagogik va psixologik determinantlarning o'zaro bog'liqligini kompleks tadqiq etishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, kognitiv mustaqillik va metakognitiv nazoratning rivojlanihi alohida omil bilan emas, balki motivatsiya, refleksiya, tanqidiy fikrlash, raqamli kompetentlik, pedagogik qo'llab-quvvatlash, adaptiv o'quv muhiti va sun'iy intellektidan foydalanish madaniyatining o'zaro integratsiyasi orqali ta'minlanadi. Shu bois mazkur determinantlarni yagona pedagogik-psixologik tizim sifatida tadqiq etish zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi hamda metakognitiv nazoratiga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik determinantlarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot aralash (mixed methods) yondashuv asosida tashkil etilib, unda miqdoriy va sifat tahlili usullarining o'zaro integratsiyasidan foydalanildi. Bunday yondashuv o'quvchilarning sun'iy intellektidan foydalanish jarayonidagi bilish faoliyati, o'z-o'zini boshqarish va refleksiv fikrlash xususiyatlarini kompleks baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda Buxoro viloyatidagi umumta'lim maktablarining 9–10-sinflarida tahsil olayotgan 72 nafar o'quvchi ixtiyoriy ravishda ishtirok etdi. Ishtirokchilar tanlanmasi tasodifiy tanlash (simple random sampling) tamoyili asosida shakllantirildi. Respondentlarning 37 nafari qizlar va 35 nafari o'g'il bolalardan iborat bo'lib, ularning yoshi 15–17 yosh oralig'ini tashkil etdi. Tadqiqot boshlanishidan oldin barcha ishtirokchilarga tadqiqot maqsadi tushuntirildi, anonimlik va ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlandi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish;
- tizimli va kompetensiyaviy yondashuv asosida nazariy umumlashtirish;
- kuzatish;
- anketa so'rovi;



- refleksiv topshiriqlar tahlili;
- pedagogik eksperiment elementlari;
- matematik-statistik tahlil.

Kognitiv mustaqillikni baholash uchun mustaqil axborot izlash, muammoni hal qilish strategiyalarini tanlash, dalillarni tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini aniqlashga yo'naltirilgan diagnostik topshiriqlar majmuasi ishlab chiqildi. Metakognitiv nazorat darajasini baholashda esa o'quvchilarning o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish va yakuniy natijalarni baholashga oid indikatorlardan foydalanildi. Shuningdek, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish chastotasi, ularga nisbatan ishonch darajasi hamda javoblarni tekshirish odatlari bo'yicha maxsus mualliflik anketasi qo'llanildi.

Eksperimental topshiriqlarda o'quvchilarga sun'iy intellekt yordamida yechiladigan muammoli vazifalar berildi. Topshiriqlarni bajarish davomida ishtirokchilarning javoblarni tekshirishga sarflagan vaqti, qo'shimcha manbalardan foydalanish holati, savollarni qayta shakllantirish ko'nikmasi hamda mustaqil xulosa chiqarish darajasi kuzatildi. Mazkur ko'rsatkichlar kognitiv mustaqillik va metakognitiv nazorat indikatorlari sifatida qabul qilindi.

Olingan empirik ma'lumotlar SPSS Statistics dasturi yordamida qayta ishlanib, tavsifiy statistika (Mean, Standard Deviation), Pearson korrelyatsiya tahlili hamda Student t-testi orqali baholandi. Statistik ishonchlilik mezoni sifatida $p < 0,05$ qiymati qabul qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: Sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi va metakognitiv nazorat ko'rsatkichlari (n = 72)

Ko'rsatkich	O'rtacha qiymat (M)	Standart og'ish (SD)	Daraja
Kognitiv mustaqillik	3,87	0,61	Yuqori
Metakognitiv nazorat	3,74	0,58	O'rtacha-yuqori
Tanqidiy fikrlash	3,81	0,55	Yuqori
Refleksiya	3,69	0,63	O'rtacha-yuqori
Raqamli kompetentlik	4,12	0,52	Yuqori
Sun'iy intellekt javoblarini tekshirish odati	3,41	0,71	O'rtacha

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, respondentlarda raqamli kompetentlik va kognitiv mustaqillik nisbatan yuqori darajada shakllangan. Shu bilan birga, sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan javoblarni tanqidiy tekshirish ko'rsatkichi boshqa mezonlarga nisbatan pastroq qayd etildi. Mazkur holat ayrim o'quvchilarning sun'iy intellekt natijalariga ortiqcha ishonishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, metakognitiv nazorat ko'rsatkichining o'rtacha-yuqori darajada ekanligi o'quvchilarning o'z bilish faoliyatini boshqarish qobiliyati rivojlanayotganini, biroq uni yanada mustahkamlash zarurligini anglatadi.

Metodologik yondashuvning afzalligi shundaki, unda faqat yakuniy natijalar emas, balki sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonidagi bilish strategiyalari, refleksiv faoliyat va o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari ham tahlil qilindi. Bu esa pedagogik hamda psixologik determinantlarning o'zaro bog'liqligini kompleks baholash va keyingi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun ishonchli ilmiy asos yaratdi.

Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi va metakognitiv nazorati ko'p jihatdan pedagogik hamda psixologik determinantlarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, raqamli kompetentlik darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilarda kognitiv mustaqillik ko'rsatkichlari ham sezilarli darajada yuqori ekanligi kuzatildi. Bunday o'quvchilar sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tayyor javob sifatida qabul qilish o'rniga, ularni boshqa manbalar bilan taqqoslash, dalillarni tekshirish va mustaqil xulosa chiqarishga ko'proq moyillik bildirdilar.

Korrelyatsion tahlil natijalari refleksiya va metakognitiv nazorat o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Refleksiv fikrlash rivojlangan o'quvchilar sun'iy intellekt bilan muloqot jarayonida o'z savollarini qayta shakllantirish, javoblarning aniqligini baholash hamda muqobil yechimlarni izlashga ko'proq e'tibor qaratdilar. Bu esa metakognitiv nazoratning faqat yakuniy natijani baholash emas, balki butun bilish jarayonini ongli boshqarish mexanizmi ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida motivatsiyaning ham muhim determinant ekanligi aniqlandi. Ichki motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchilar sun'iy intellektdan bilim olishni yengillashtiruvchi vosita sifatida foydalangan bo'lsalar, tashqi rag'batga ko'proq tayanadigan ishtirokchilar tayyor javoblarni qabul qilishga moyillik ko'rsatdilar. Demak, sun'iy intellektning ta'limdagi samaradorligi nafaqat texnologik imkoniyatlarga, balki o'quvchining shaxsiy motivatsion xususiyatlariga ham bevosita bog'liqdir.



Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning aksariyati dastlab sun'iy intellekt javoblarini ishonchli deb qabul qilgan bo'lsa-da, muammoli topshiriqlar va refleksiv savollar berilgach, ular javoblarni tanqidiy tahlil qilish zarurligini anglay boshladilar. Bu holat o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan refleksiv faoliyat sun'iy intellektdan foydalanish madaniyatini shakllantirishda muhim pedagogik omil ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik determinantlar ichida muammoli o'qitish texnologiyalari, loyiha faoliyati, hamkorlikda o'qitish, refleksiv topshiriqlar va muntazam teskari aloqa eng yuqori samaradorlikka ega. Mazkur metodlar o'quvchini tayyor bilimni o'zlashtirishdan ko'ra, bilimni mustaqil izlash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llashga yo'naltiradi. Natijada sun'iy intellekt o'quvchining fikrlash jarayonini almashtiruvchi emas, balki uni qo'llab-quvvatlovchi vositaga aylanadi.

Psixologik determinantlar tahlili esa tanqidiy fikrlash, refleksiya, o'z-o'zini boshqarish va kognitiv moslashuvchanlikning o'zaro uzviy bog'liqligini namoyon etdi. Ushbu sifatlar rivojlangan o'quvchilar murakkab vaziyatlarda sun'iy intellekt javoblarini bir nechta nuqtayi nazardan baholab, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga muvaffaq bo'ldilar. Aksincha, metakognitiv nazorati sust rivojlangan ishtirokchilar javoblarni chuqur tahlil qilmasdan foydalanishga moyillik ko'rsatdilar.

Tadqiqot davomida yana bir muhim jihat aniqlandi. Sun'iy intellektdan foydalanish chastotasining ortishi har doim ham kognitiv mustaqillikning ortishini anglatmaydi. Mazkur texnologiyadan foydalanish sifati, ya'ni savollarni to'g'ri shakllantirish, javoblarni tekshirish, qo'shimcha manbalarni izlash va natijalarni mustaqil baholash ko'nikmalari asosiy omil sifatida namoyon bo'ldi. Shuning uchun ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishni o'rgatishda texnik ko'nikmalar bilan bir qatorda metakognitiv strategiyalarni ham rivojlantirish zarur.

Olingan natijalar asosida sun'iy intellekt bilan ishlashning pedagogik-psixologik modeli taklif etildi. Mazkur model beshta o'zaro bog'liq komponentdan iborat:

1. **Motivatsion komponent** - o'quvchining bilishga bo'lgan ichki ehtiyoji va o'quv faoliyatiga qiziqishini qo'llab-quvvatlash.
2. **Kognitiv komponent** - axborotni izlash, tahlil qilish, taqqoslash va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.
3. **Metakognitiv komponent** - rejalashtirish, monitoring qilish, o'z faoliyatini baholash va zarur hollarda strategiyani o'zgartirishni ta'minlash.
4. **Pedagogik komponent** - o'qituvchining fasilitatorlik roli, refleksiv ta'lim muhiti va muammoli topshiriqlarni tashkil etish.
5. **Raqamli komponent** - sun'iy intellekt vositalaridan mas'uliyatli, etik va xavfsiz foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish.

Mazkur modelning amaliy qo'llanilishi o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, sun'iy intellektdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish hamda metakognitiv nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, model ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish, individual o'quv trayektoriyalarini yaratish va zamonaviy raqamli ta'lim muhitining samaradorligini oshirish uchun nazariy hamda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi va metakognitiv nazoratini rivojlantirish faqat zamonaviy texnologiyalarni ta'limga joriy etish bilangina emas, balki ularni pedagogik va psixologik jihatdan to'g'ri tashkil etish bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Sun'iy intellekt o'quv jarayonini individuallashtirish, o'quv materiallarini moslashtirish va bilimlarni tezkor tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirsa-da, uning haqiqiy samaradorligi o'quvchining mustaqil fikrlash, tanqidiy baholash va o'z bilish faoliyatini ongli boshqarish qobiliyatlari bilan belgilanadi.

Tadqiqot davomida kognitiv mustaqillikning shakllanishida refleksiya, ichki motivatsiya, tanqidiy fikrlash, raqamli kompetentlik va o'z-o'zini boshqarish kabi psixologik determinantlar yetakchi o'rin egallashi aniqlandi. Pedagogik determinantlar sifatida esa muammoli ta'lim, loyiha asosidagi o'qitish, refleksiv topshiriqlar, muntazam teskari aloqa, adaptiv o'quv muhiti va o'qituvchining fasilitatorlik faoliyati eng muhim omillar ekanligi asoslandi. Mazkur determinantlarning uyg'unlashuvi o'quvchilarning sun'iy intellekt vositalaridan faqat tayyor javob olish vositasi sifatida emas, balki bilimlarni chuqurlashtirish va mustaqil izlanishni qo'llab-quvvatlovchi intellektual hamkor sifatida foydalanishga xizmat qiladi.

Empirik natijalar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellektdan foydalanish chastotasining o'zi yuqori natijalarni kafolatlamaydi. Asosiy omil undan qanday maqsadda va qanday strategiyalar asosida foydalanilishidir. Javoblarni turli manbalar bilan solishtirish, ularning ishonchligini tekshirish, muqobil yechimlarni izlash hamda o'z xulo-

salarini dalillar bilan asoslash odati rivojlangan o'quvchilarda kognitiv mustaqillik va metakognitiv nazorat ko'rsatkichlari ham yuqoriroq bo'lishi kuzatildi. Bu esa sun'iy intellekt bilan ishlash madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan pedagogik-psixologik model sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida motivatsion, kognitiv, metakognitiv, pedagogik va raqamli komponentlarning o'zaro integratsiyasiga asoslanadi. Mazkur model o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish, refleksiv fikrlashni rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirish uchun nazariy va metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Amaliy nuqtayi nazardan, umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanish metodikasiga metakognitiv strategiyalarni rivojlantiruvchi topshiriqlarni kiritish, o'quvchilarda prompt tuzish madaniyatini shakllantirish, axborotning ishonchliligini tekshirish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda refleksiv baholash mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv sun'iy intellektning ta'limdagi imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilan birga, o'quvchilarning intellektual mustaqilligi, mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyati va uzluksiz o'rganish kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda sun'iy intellektning turli yosh bosqichidagi o'quvchilarning metakognitiv strategiyalariga uzoq muddatli ta'siri, adaptiv o'quv platformalarining psixologik samaradorligi hamda generativ sun'iy intellekt asosida individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalash mexanizmlarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar raqamli pedagogika va ta'lim psixologiyasining yangi ilmiy yo'nalishlarini rivojlantirishga hamda sun'iy intellektni insonning bilish faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi samarali pedagogik vosita sifatida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. New York, NY: W. H. Freeman.
2. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906–911. <https://doi.org/10.1037/0003-066X.34.10.906>
3. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. *Theory Into Practice*, 41(2), 64–70. https://doi.org/10.1207/s15430421tip4102_2
4. Luckin, R. (2018). Machine learning and human intelligence: The future of education for the 21st century. London, England: UCL IOE Press.
5. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning. Boston, MA: Center for Curriculum Redesign.
6. Zawacki-Richter, O., Marin, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 16(39). <https://doi.org/10.1186/s41239-019-0171-0>
7. UNESCO. (2021). AI and education: Guidance for policy-makers. Paris: UNESCO.
8. UNESCO. (2023). Guidance for generative AI in education and research. Paris: UNESCO.
9. OECD. (2021). Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with AI, Blockchain and Robots. Paris: OECD Publishing.
10. OECD. (2023). OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. Paris: OECD Publishing.
11. Kasneci, E., Sessler, K., Küchemann, S., Bannert, M., Dementieva, D., Fischer, F., ... & Kasneci, G. (2023). ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. *Learning and Individual Differences*, 103, 102274.
12. OpenAI. (2025). Teaching with AI: Educator guidance for effective and responsible use of artificial intelligence. OpenAI.
13. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son1 Toshkent.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son2 Farmoni. Toshkent.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va raqamli transformatsiyani jadallashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. Toshkent.
16. Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. (2024). Artificial intelligence development initiatives in Uzbekistan. Tashkent.
17. Schraw, G., & Dennison, R. S. (1994). Assessing metacognitive awareness. *Contemporary Educational Psychology*, 19(4), 460–475.
18. Winne, P. H., & Azevedo, R. (2015). Metacognition. In J. D. Wright (Ed.), *International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences* (2nd ed., pp. 186–193). Elsevier.

1 <https://lex.uz/docs/-5013007>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.